



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QURILISH VA UY-JOY  
KOMMUNAL XO'JALIGI VAZIRLIGI  
«SHAHARSOZLIK HUJJATLARI EKSPERTIZASI»  
DAVLAT UNITAR KORXONASI

Жиззах вилояти

130100, Jizzax shahri, Sh.Rashidov ko'chasi, 1-uy, Tel. +99878 771-70-15, Faks: +99878 771-70-15, E-mail: jizzah\_expertiza@mail.ru www.ekspertiza.mc.uz [www.mc.uz](http://www.mc.uz)

Holati: Ijobiy  
Direktor: Sabirov Alisher  
Sana: 01-12-2023 yil



**Yig'ma ekspert xulosasi № 132863**

**Obyekt nomi** «Jizzax viloyati Jizzax shahri “Navro'z” MFY tibbiyot birlashmasiga qarashli Ftizatriya dispanseri binosini rekonstruksiya qilish»

**Buyurtmachi** - Jizzax viloyati hokimligi “Yagona buyurtmachi xizmati” IK DUK

**Bosh loyihachi** - «ASLSHOX LOYIXA» MChJ

**Litsenziya** - 04.02.2022 yil AL-002064 O'zbekiston Respublikasi Qurilish Vazirligi

**Moliyalashtirish manbai** - Davlat mablag'i

**Bosh pudratchi** - Tender savdolari orqali

**Qurilish turi** - Qayta qurish (rekonstruksiya).

**Murojaat raqami:** № 123377

**1. Loyihalash uchun asos**

1.1. O'zbekiston Respublikasi vazirlar Mahkamasi rayosati majlisining 11.09.2023 yildagi VM-83/51-sonli rayosat bayoni.

1.2. Jizzax viloyat hokimligi tomonidan 25.09.2023 yilda tasdiqlangan va Jizzax viloyat qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi bosh boshqarmasi, Jizzax viloyati hokimligi “Yagona buyurtmachi xizmati” IK DUK, Jizzax shahar hokimligi va Jizzax viloyat sog'liqni saqlash boshqarmasi bilan 2023 yilda kelishilgan Loyiha topshirig'i.

1.3. Jizzax viloyat qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi bosh boshqarmasi tomonidan 21.09.2023 yilda berilgan 1708-1708401-92761-sonli Arxitektura-rejalashtirish topshirig'i.

1.4. “O'zgashkliti” MChJ Jizzax viloyat filiali tomonidan 2023 yil oktyabr oyida berilgan muhandislik - geologik sharoitlari to'g'risidagi texnik xulosa.

1.5. Jizzax viloyat qurilish sohasida hududiy nazorati inspeksiyasining 23.10.2023 yildagi binolarning texnik holatini o'rganish va tahlillar natijasi bo'yicha 51-sonli xulosasi.

1.6. Jizzax shahar qurilish va uy joy kommunal xo'jaligi bo'limi Loyiha-smeta hujjatlarini kelishish bo'yicha Arxitektura va shaharsozlik kengashi ishchi organining 2023-11-10 dagi 101822866-sonli xulosasi.

1.7. “Ekologiya” MChJ tomonidan 2023 yilda berilgan Atrof-muhitga ta'siri to'g'risidagi bayonot loyihasi. (Пр.ЗВОС)

1.8. “Hududiy elektr tarmoqlari” AJ Jizzax SHET tomonidan 27.10.2023 yilda berilgan 25-302-sonli Texnik shart.

1.9. "Hududgaz Jizzax" GTF tomonidan 27.10.2023 yilda tabiiy gaz bilan gazlashtirish loyihasini ishlab chiqish va gazlashtirishga berilgan 040849-sonli Texnik shart.

1.10. "Jizzax suv ta'minoti" MCHJ Jizzax shahar filiali tomonidan 27.10.2023 yilda berilgan 625-sonli texnik shart.

1.11. Jizzax viloyati hokimligi "Yagona buyurtmachi xizmati" IK DUK va «ASLSHOX LOYIXA» MCHJ o'rtasidagi loyixa - smeta xujjatlarini bajarish uchun 16.10.2023 yildagi 59541 - sonli shartnoma.

## **2. Ekspertiza uchun taqdim etilgan materiallar**

2.1. «ASLSHOX LOYIXA» MCHJ ning "Shaffof qurilish" MAT orqali 13.11.2023 yildagi 123377-sonli murojaati va Jizzax viloyati hokimligi "Yagona buyurtmachi xizmati" IK DUK ning 18.10.2023 yildagi 3028-sonli murojaat xati.

2.2. Loyiha tarkibiga ko'ra ishlab chiqilgan loyihalar va smeta hujjatlari elektron tarzda taqdim qilingan.

## **3. Loyiha yechimlarining qisqacha mazmuni**

3.1. Loyiha bosh rejasi.

Loyihalanayotgan obyektning bosh rejasi Jizzax viloyat qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi bosh boshqarmasi tomonidan 21.09.2023 yilda berilgan 1708-1708401-92761-sonli Arxitektura-rejalashtirish topshirig'i asosida ishlab chiqilgan. Umumiy maydoni - 0,296 ga. (2 969,0 m<sup>2</sup>)

Ishchi loyihada hududni obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish, hududda erkin harakatlanish sharoitini yaratish, hududga tashqi yong'inga qarshi shitlar o'rnatish, eni 3,5-4,0m bo'lgan asfalto-beton qoplamali yo'l qurish, axlat tashlash qutilari o'rnatish ko'zda tutilgan.

Hudud chegaralari:

Shimoldan - mavjud ko'cha,

Janubdan - turar-joy,

G'arbdan - mavjud ko'cha,

Sharqdan - aholi uylari.

Hudud balansi:

Umumiy maydoni - 0,296 ga. 2 969,0 m<sup>2</sup> (100%)

Qurilish maydoni - 606,0 m<sup>2</sup> (20,41%)

Qattiq to'shamali maydoni - 1695,0 m<sup>2</sup> (57,09%)

Ko'kalamzorlashtirish maydoni - 668,0 m<sup>2</sup> (22,50%)

3.2. Qurilish maydonining xususiyatlari.

Qurilish va iqlim zonasi - II.

Taxminiy qishki tashqi xavo harorati - 19<sup>0</sup>C.

Shamolning standart bosimi - 0,38kPa.

Standart qor yuki - 0,50kPa.

3.3 Qurilish maydonining muxandislik - geologik natijalari:

Tuproq sharoitlarini hisobga olgan holda qurilish maydonining seysmikligi - 8 ball.

Cho'kish uchun tuproq sharoitlarining turi - I (birinchi).

Seysmik xususiyatlari bo'yicha tuproq toifasi - III (uchinchi).

### **3.4. Poliklinika binosi.**

Arxitekturaviy yechimlari:

Mavjud poliklinika binosi bir qavatli, g'ishtli, yerto'lasiz, os o'qlari bo'ylab o'lchamlari 12,3x22,30m. Binoning pol qismidan shiftning pastki qismigacha balandligi h= 3,5m.

Javobgarlik sinfi - III.

Chidamlilik darajasi - II.

Yong'inga chidamlilik darajasi - II.

Texnik - Iqtisodiy ko'rsatkichlar

Qurilish maydoni - 287,9 m<sup>2</sup>

Umumiy maydon - 230,1 m<sup>2</sup>

Foydali maydon - 230,1 m<sup>2</sup>

Qurilish hajmi - 1 209,2 m<sup>3</sup>

Loyiha bo'yicha rekonstruksiya qilinayotgan poliklinika binosida quyidagi ishlar bajarilishi rejalashtirilgan.

- Mavjud asbestsement tom qoplamasini va yog'och konstruksiyalarini olish;
- Eshik, deraza va vitrajlarni demontaj qilish;
- Pol qoplamalarini demontaj qilish;
- shift qoplamalarini yechib olish;
- gipsakortonli va alyumin profilli ora devorlar tashkil etish;
- asbestsement tom qoplamasini va yog'och konstruksiyalarini tashkil etish;
- pol qoplamalarini o'rnatish yog'ochli, keramik pltali va linoleum Relinli;
- Eshik, deraza va vitrajlar o'rnatish;
- Tashqi va ichki pardoqlash ishlarini bajarish;
- kirish qismi va pandusni beton qilish;
- betonli to'shama maydon qurish ishlarini bajarish rejalashtirilgan.

### **3.5. Laboratoriya binosi.**

Arxitekturaviy yechimlari:

Mavjud Laboratoriya binosi bir qavatli, g'ishtli, yerto'lasiz, os o'qlari bo'ylab o'lchamlari 6,0x35,56m. Binoning pol qismidan shiftning pastki qismigacha balandligi h= 3,0m.

Javobgarlik sinfi - III.

Chidamlilik darajasi - II.

Yong'inga chidamlilik darajasi - II.

Texnik - Iqtisodiy ko'rsatkichlar

Qurilish maydoni - 229,3 m<sup>2</sup>

Umumiy maydon - 186,1 m<sup>2</sup>

Foydali maydon - 186,1 m<sup>2</sup>

Qurilish hajmi - 986,0 m<sup>3</sup>

Loyiha bo'yicha rekonstruksiya qilinayotgan Laboratoriya binosida quyidagi ishlar bajarilishi rejalashtirilgan.

- Mavjud asbestsement tom qoplamasini va yog'och konstruksiyalarini olish;
- Eshik, deraza va vitrajlarni demontaj qilish;
- Pol qoplamalarini demontaj qilish;
- shift qoplamalarini yechib olish;
- gipsakortonli va alyumin profilli ora devorlar tashkil etish;
- asbestsement tom qoplamasini va yog'och konstruksiyalarini tashkil etish;
- pol qoplamalarini o'rnatish yog'ochli, keramik plitali va linoleum Relinli;
- Eshik, deraza va vitrajlar o'rnatish;
- Tashqi va ichki pardoqlash ishlarini bajarish;
- kirish qismi va pandusni beton qilish;
- betonli to'shama maydon qurish ishlarini bajarish rejalashtirilgan.

### **3.6. Kir yuvish va xojatxona binosi.**

Arxitekturaviy yechimlari:

Kir yuvish va xojatxona binosi bir qavatli, g'ishtli, yerto'lasiz, os o'qlari bo'ylab o'lchamlari 6,0x10,0m. Binoning pol qismidan shiftning pastki qismigacha balandligi h= 3,0m.

Javobgarlik sinfi - III.

Chidamlilik darajasi - II.

Yong'inga chidamlilik darajasi - II.

Texnik - Iqtisodiy ko'rsatkichlar

Qurilish maydoni - 66,2 m<sup>2</sup>

Umumiy maydon - 49,8 m<sup>2</sup>

Foydali maydon - 49,2 m<sup>2</sup>

Qurilish hajmi - 284,7 m<sup>3</sup>

Konstruktiv yechimlari:

Poydevorlar - tasmali armozetka bilan mustahkamlangan B15 sinfli monolit temir-betondan.

Devorlari - M50 qarishma bilan M75 markali pishgan g'ishtdan teriladi, tashqi devorlar 380 mm qalinlikda va tashqi tomondan 50 mm qalinlikdagi bazalt mineral plitalaridan himoya qatlami o'rnatiladi, ichki devorlar qalinligi 380mm. Devorlarni devor balandligi bo'ylab 700 mm balandlikda gorizonta to'r setkalar bilan mustahkamlanadi.

Ora devorlar – armog'ishtli, qalinligi  $\delta=120\text{mm}$  devor balandligi bo'ylab 700 mm balandlikda gorizontal to'rsatkalar bilan mustahkamlanadi.

Bog'lamalar – B15 sinfli monolit temir-beton.

Tom yopma– ko'p bo'shliqli temir beton plitalar va qoplamalar.

Tom yopish ishlari – yog'och konstruksiyali va asbestsement tom qoplamali.

Pol – xonalarni talabiga qarab loyiha bo'yicha bajariladi.

Oyna bloklari – maxsus ishlab chiqarilgan ikki kamerali metall-plastmassadan.

Tashqi eshik bloklari – maxsus ishlab chiqarilgan ikki kamerali alyumin profilli.

Ichki eshik bloklari – maxsus ishlab chiqarilgan alyumin profillardan.

Kirish qismi– beton.

Tashqi beton qoplamalar kengligi 1500 mm bo'lgan beton.

Tashqi pardoqlash ishlari - tashqi pardoqlash bayonotiga ko'ra.

Ichki pardoqlash ishlari - ichki pardoqlash bayonotiga ko'ra.

Undan tashqari loyihada:

1.  $25\text{ m}^3$  hajmli oqova suv xandagi.
2. Nasos va yomkost uchun bino.
3. Tashqi to'siq devorlar va metal to'siq devorlar qurish ishlari rejalashtirilgan.

#### **4. Loyihalanayotgan ob'ektning muhandislik ta'minoti:**

##### **4.1. Ichimlik suvi va oqova suv tarmog'i.**

Sovuq suv ta'minoti iqtisodiy va ichimlik hisoblanadi. Kirishlar soni-har bir blok bo'limiga bittadan. Suv tarmog'i oxiri berk. Suv quvurlar sanitariya-texnik vositalar uchun devorlarning ichida yashiringan holda yotqiziladi. Binoga yotqiziladigan quvurlar tashqi diametri  $D_n=20\dots 25\text{mm}$  bo'lgan PN10 polipropilen PPR quvurlaridan tayyorlanadi.

Issiq suv ta'minoti.

Issiq suv ta'minoti elektr suv isitgichlaridan foydalaniladi. Issiq suv quvurlari PN20 polipropilen PPRC quvurlaridan tayyorlanadi va sovuq suv quvurlari bilan bir xil tarzda yotqiziladi. Loyihada, shuningdek, quyoshli suv isitgichlarini o'rnatishni ko'zda to'tilgan.

Oqova suv ta'minoti.

Maishiy oqova suv ta'minoti  $\varnothing 50-100\text{ mm}$  bosimsiz plastik quvurlardan ishlab chiqariladi. GOST 22689-2014.

Tashqi suv ta'minoti va oqova suv tarmoqlari:

Suv tarmog'i tashqi diametri 25mm gacha bo'lgan polietilen quvurlardan tayyorlanadi. Tashqi yong'inga qarshi yong'in suv havzasi o'rnatilgan. Binodan chiqindi suvlarni olib tashlash xandak qudug'iga ko'zda tutilgan. Ichki oqova suv tarmog'i GOST 18599-2001  $D_n=160\times 9,1\text{ mm}$  bo'lgan past bosimli polietilen (HDPE) quvurlaridan yotqiziladi.

##### **4.2. Isitish va shamollatish.**

Blok 1. Issiqlik manbai Navien Ace-30K isitish qozoni. Asosiy yoqilgi turi gaz. Isitish qozoni soni 1 dona. Bir dona isitish qozonining quvvati 30kVt. Binoga talab etilgan issiqlik quvvati 24.2kVt. Isitish tizimi ikki quvurli gorizontal bo'lib pol ustiga yotqizilgan. Isitish tizimining quvurlari va armaturalari PPR Ø32x5,4, Ø25x4,2, Ø20x3,4 diametrli va temir po'lat dy32, dy25, dy20 diametrli quvurlardan qilingan. Isitish tizimida "Willo-Stratos 32/1-8 aylantiruvchi nasos o'rnatilgan. Isitish jihozlari bimetall radiatorlar. Bir dona radiator qovurg'asining quvvati 166Vt. Bino honalarida KANAL-VENT-200 turdagi ventilyatorlari orqali mehanik shamollatish tizimi ko'zda tutilgan. Havо quvrlari Ø100, Ø125, Ø160, Ø200, Ø250 diametrli.

Blok 2. Issiqlik manbai Navien Ace-40K isitish qozoni. Asosiy yoqilgi turi gaz. Isitish qozoni soni 1 dona. Bir dona isitish qozonining quvvati 40kVt. Binoga talab etilgan issiqlik quvvati 29.9kVt. Isitish tizimi ikki quvurli gorizontal bo'lib pol ustiga yotqizilgan. Isitish tizimining quvurlari va armaturalari PPR Ø32x5,4, Ø25x4,2, Ø20x3,4 diametrli va temir po'lat dy32, dy25, dy20 diametrli quvurlardan qilingan. Isitish tizimida "Willo-Stratos 32/1-8 aylantiruvchi nasos o'rnatilgan. Isitish jihozlari bimetall radiatorlar. Bir dona radiator qovurg'asining quvvati 166Vt. Bino honalarida Kanal-PKV-Sh-40-20-4-380, POLO 5, KANAL-VENT-250, KANAL-VENT-160 turdagi ventilyatorlari orqali mehanik shamollatish tizimi ko'zda tutilgan. Havо quvrlari Ø125, Ø160, Ø200, Ø250 diametrli va 300x200, 400x200 o'lchamli.

### **4.3. Elektr tarmoqlari.**

#### Laboratoriya binosi:

Kiritish-tarqatish uskunasi sifatida PR8501 UXL3 (IP31) olingan. Ximoya apparatlari uchun VA47 va AD12 markali avtomat uzgichlar tanlangan. Magistral va tarqatuvchi tarmoqlar uchun VVGng-0,66 kV markali kabellar ishlatilgan. Magistral tarmoqlarni mexanik shikastlanishdan PVX quvurlar yordamida ximoyalangan. Elektr yoritish uchun svetodiodli va svetodiod lampali yoritgichlar qo'llanilgan. Binoning tom qismiga quvvati 550 Vt bo'lgan jami 24 ta quyosh panellarini o'rnatish ko'zda tutilgan. Inventor tipi «tarmoqqa ulanadigan» quvvati 10 kVt bo'lgan Invertor o'rnatilgan.

#### Poliklinika binosi.

Kiritish-tarqatish uskunasi sifatida ЩRV-48 olingan. Ximoya apparatlari uchun VA47 va AD12 markali avtomat uzgichlar tanlangan. Magistral va tarqatuvchi tarmoqlar uchun VVGng-0,66 kV markali kabellar ishlatilgan. Magistral tarmoqlarni mexanik shikastlanishdan PVX quvurlar yordamida ximoyalangan. Elektr yoritish uchun svetodiodli va svetodiod lampali yoritgichlar qo'llanilgan.

#### Tashqi 0,4 kV elektr tarmog'i:

Loyixada obyekt hududida quvvati 160kVA bo'lgan KTPK o'rnatish ko'zda tutilgan. Zaxira ta'minoti uchun quvvati 100kVA bo'lgan DES o'rnatish ko'zda tutilgan. Tashqi elektr tarmoqlari AVBbShv va AVVG markali kabellarni yer ostiga yotqizib bajarilgan.

4.4. Binoning barcha muhandislik tarmoqlari ishlari texnik shartlarga muvofiq bajarilishi va jihozlanishi lozim. (Arxitektura-rejalashtirish topshirig'iga binoan).

### **5. Loyihani kelishilganligi to'g'risida hujjatlar.**

5.1. Jizzax shahar qurilish va uy joy kommunal xo'jaligi bo'limi Loyiha-smeta hujjatlarini kelishish bo'yicha Arxitektura va shaharsozlik kengashi ishchi organining 2023-11-10 dagi 101822866-sonli xulosasi.

5.2. "Ekologiya" MChJ tomonidan 2023 yilda berilgan Atrof-muhitga ta'siri to'g'risidagi bayonot loyihasi. (Пр.3BOC)

5.3. Isitish tizimiga o'rnatilishi rejalashtirilgan Navien Ace-30K va Navien Ace-40K isitish qozonlari sanoat xavfsizligi ekspertizasidan o'tkazilishi va tegishli sertifikatga ega bo'lishi lozim.

### **6. Ekspertiza natijalari.**

6.1. Loyiha - smeta hujjatlari ekspertiza ko'rigiga buyurtmachining e'tirozlarisiz taqdim qilindi.

6.2. Obyektning qurilish narxi "Qurilish iqtisodiyoti instituti" MChJ tomonidan ishlab chiqilayotgan joriy narxdagi kataloglar, birja, amaldagi (haqiqiy, bozor sharoitlariga ko'ra) narxlar va joriy vaqtda faoliyat olib borayotgan internetdagi bozor narxlarni xisobga olgan holda ishlab chiqilgan va ekspertizaga taqdim qilingan.

6.3. Buyurtmachi tomonidan smeta qiymati buyurtmachining boshqa xarajatlarisiz va 12% QQS bilan birga **2 056 148,322** ming so'mga taqdim etilgan. Smeta hujjatlarini o'rganish jarayonida ba'zi qurilish materiallari narxi, mashina mexanizm narxi va ish turlarining amaldagi qurilish me'yorlari va qoidalari asosida hisoblanishi xisobiga - **200 064,714** ming so'mga kamaydi va obyektning umumiy baxosi buyurtmachining boshqa sarf-xarajatlarisiz va QQS 12% bilan birga **1 856 083,608** ming so'mga tavsiya etiladi.

Shu jumladan:

- qurilish montaj ishlari (QMI) - **1 368 041,690** ming so'mni;
- jixoz, mebel va inventar tashish xarajatlari bilan birgalikda - **283 889,637** ming so'mni;
- qurilish vaqtida qurilish obektini sug'urtalashga sarflangan xarajatlar (0,32%) - **5 286,180** ming so'mni;
- qo'shimcha qiymat solig'i 12% - **198 866,101** ming so'mni tashkil etgan.
- umumlashtirilgan smeta hisobida ishchi-quruvchilar miqdori **15 589,801** odam/soat.
- buyurtmachining boshqa xarajatlari narxi smetaga kiritilmaganligi sababli ko'rsatilmadi.

Ishchi quruvchilarning o'rtacha bir soatlik ish xaqi "Qurilish iqtisodiyoti instituti" MChJ chiqarayotgan 2023-yil II chorak(kvartal) katalog asosida **16 539,65 x 1,12 = 18 524,408** so'm ijtimoiy sug'urtaga ajratma 12 % qabul qilingan. (Ijtimoiy sug'urtaga ajratma foizi pudratchining haqiqiy harajatlari bo'yicha buxgalteriya hujjatlari asosida amalga oshiriladi).

Smeta hujjatlarida nazarda tutilgan ish haqi bo'yicha xarajatlarni aniqlashda, qabul qilingan 1kishi/soat 18 524,408 so'm ( ijtimoiy sug'urtaga ajratma 12% bilan) va pudratchining "boshqa xarajatlari" bo'yicha xarajatlarni aniqlashda qabul qilingan 18,58% ko'rsatkich tavsiyaviydir, pudratchi bilan bajarilgan ishlar xarajatlarini hisob-kitob qilishda ushbu ko'rsatkichlar ShNQ4.01.16-09 bilan tartibga solingan holda olib borilishi tavsiya etiladi.

#### **Ta'kidlash joizki:**

a). Smeta hujjatlarida nazarda tutilgan asosiy qurilish materiallari va uskuna (jixoz) larni xarid qilish tartibi belgilangan tartibda O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq amalga oshirilishi va asoslovchi xujjatlarga tayanilishi lozim amda o'zaro hisob-kitob qilishda ShNQ 4.01.16-09 qoidalariga amal qilgan holda eng maqbul narxlar qabul qilinishi nazorati buyurtmachi tashkilot zimmasida qoladi.

b). Buyurtmachiga loyiha hujjatlarini tasdiqlashdan oldin quyidagilarni qayta ko'rib chiqish tavsiya etiladi:

- Jixoz, mebel va inventar tashish xarajatlari bilan birgalikdagi 12% QQS va buyurtmachining boshqa xarajatlarisiz 318 973,854 ming so'mni tashkil etib, ushbu mablag'ning aniq sarfini buyurtmachiga qayta ko'rib chiqish tavsiya etiladi;

- pudratchi boshqa xarajatlarning aniq sarfi;

- "Qurilishning bahosini shartnomaviy joriy narxlarda aniqlash qoidalari" ShNK 4.01.16-09 asosida qurilish materiallari (buyumlar, konstruksiyalar) va uskunalarining ishlab chiqaruvchi zavodlarning ulgurji narxlarini o'z ichiga olgan hududiy bozorda haqiqatda shakllangan narxlari, shuningdek bevosita ishlab chiqaruvchilardan (yetkazib beruvchi), qurilish materiallari birja va yarmarkalarining byulletenlari, qurilish

materiallari va uskunalari yetkazib beruvchi tashkilotlarning narxlarining eng maqbullaridan olinishini va bundan tashqari obyektning dastlabki baxosini aniqlashda loyihachi tashkilot tomonidan ba'zi bir qurilish materiallari va uskunalar narxlari amaldagi kotolog va bozor holatidagi o'rtacha narxlardan past shakllantirilish holatlarini buyurtmachi tashkilot loyiha – smeta hujjatlarini tasdiqlashdan oldin o'rganib chiqib xulosa qabul qilishi lozim;

- ish haqi xarajatlarining pudratchi tashkilotning o'tgan 12 oydagi o'rtacha oylik ish haqi darajasidan kelib chiqqan holda bir odam/soat ish haqidan olinganligi.

v). Buyurtmachi qurilish ishlarini boshlashdan oldin loyiha bilan to'liq tanishib chiqishi hamda barcha mutasaddi tashkilotlar bilan kelishgan holda qurilish ishlarini boshlashi lozim.

g). Qurilish, montaj ishlarini bajarilishida qaytarilgan materiallar (vozvrat materialov) qiymati buyurtmachi va pudratchi tomonidan aniqlanadi. (Demontaj qilingan material va jihozlar xam).

6.4. Yakuniy harajat buyurtmachi va pudratchi tomonidan qurilish tugagandan so'ng, haqiqiy (ijro hujjatlari) nazorat natijalari asosida aniqlanadi.

6.5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 11.06.2003–yildagi №261 qarori bilan tasdiqlangan “Qurilish ob'ektlari narxini joriy shartnoma narxlarida aniqlash tartibi to'g'risida vaqtinchalik qoidalar”ga va ShNK 4.01.16.09 ga binoan qurilishning narxi tavsiyaviydir. Tavsiya etilgan bahoni qabul qilish qarorini buyurtmachi va pudratchi birgalikda qabul qiladilar (ShNQ4.01.16-09, 6-bob. 6.4 -bandi).

6.6. O'zbekiston Respublikasi Shaharsozlik kodeksi 4-bob 23,24,25- moddalari xamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 17.09.2021 yildagi №579 - sonli qarorining 1 - ilova 3 - bob 29 - bandiga asosan "Ekspert tashkilotiga taqdim etilgan shaharsozlik xujjatlarining sifati, dastlabki ma'lumotlarning xaqqoniyligi va qabul qilingan loyiha yechimlari bo'yicha buyurtmachi hamda loyiha tashkiloti javobgardir".

6.7. Taqdim qilingan lokal hulosaga javob hujjatlarining xaqqoniyligi, sifati va ishonchliligi uchun buyurtmachi xamda loyiha tashkiloti javobgardir.

## **7. Xulosalar.**

7.1. Ekspertiza natijalari va takliflarini inobatga olgan holda **“Jizzax viloyati Jizzax shahri “Navro'z” MFY tibbiyot birlashmasiga qarashli Ftizatriya dispanseri binosini rekonstruksiya qilish”** loyiha - smeta hujjatlari kelgusida ko'rib chiqish va kelishishga tavsiya etiladi.

**Bosh mutaxassis:** Tajibayev Sharof Abdurashidovich

### **Ishtirokchi ekspertlar:**

Abduramanov Nazim Sheyxmambetovich

MAMARAJABOV JASUR NORMAMAT O'G'LI

UBAYDULLAYEV NIZOMJON NE'MATULLA O'G'LI

AMONOV JAVOXIR MUXAMMADJON O'G'LI

AYUBOV RUSTAM XAMITOVICH

AXMEDOV ABDULLAJON AKMAL O'G'LI